

Abdullahayev Nurullo Nurmirza o'g'li
Namangan ixtisoslashtirilgan san'at maktabi o'quvchisi

УЗБЕКСКОЕ ЭСТРАДНОЕ ИСКУССТВО

Абдуллаев Нурулло Нурмирза ўғли
Namangan ixtisoslashtirilgan san'at maktabi o'quvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada estradaning boshqa musiqa san'ati turlaridan farq qiluvchi o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, uning dunyo bo'yicha tarqalish jihatlari yoritib berilgan. Xususan, maqolada estradaning O'zbekistonga kirib kelish tarixiga e'tibor qaratilib, uning dastlabki hamda hozirgi ko'rinishlari o'zaro taqqoslangan.

Kalit so'zlar: Estrada, folklor, jaz, pop, simfoniya, rok, ansambl, orkestr, vokal.

Kirish. Insoniyat hayotida musiqa va san'at juda katta ahamiyatga ega. Odamlar paydo bo'libdiki, ularni atrof-muhitdagi tabiiy ohanglar e'tiborlarini tortib, o'ziga jalb qilgan. Keyinchalik, muloqot jarayoni boshlangach mehnat faoliyati davomida odamlar dastlabki kuylarni tovushlar orqali shakllantira boshlashgan. Ming yillar davomida ular takomillashib, musiqa san'at darajasiga ko'tarilgan. Hozirgi kunda musiqaning juda ko'plab tarmoq va janrlari ichida estrada yo'nalishi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Maqsad va vazifalar. Ushbu maqolada estrada san'atining o'ziga xos jihatlari tahlil etilib, uning O'zbekistonga kirib kelish tarixini yoritib berish maqsad qilib olingan. Mazkur jarayonni yoritib berish uchun esa quyidagi vazifalar belgilab olingan:

- 1) Estradaning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish;
- 2) uning vujudga kelish tarixini yoritib berish;
- 3) O'zbekistonga estradaning kirib kelishini tarixiy jihatdan baholash;
- 4) O'zbekistonda estradaning ilk shakllangan davridagi holati bilan hozirgi kundagi ko'rinishlarini o'zaro taqqoslash.

Asosiy qism. Markaziy Osiyo xalqlari qadimdan san'atning deyarli barcha sohalarini yuksak baholaganlar. Afrosiyobdag'i devoriy suratlar, Kamoliddin Behzodning mohirona mo'yqalam tasvirlari; Alp Er To'nga marsiyasi, xalq kuylari va boshqalar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Shunday bo'lsa-da, mintaqamizga san'atning zamonaviy tarmoqlari oktabr inqilobidan so'ng bo'y ola boshlagan. Jumladan, 1917-1950-yillarda xalqimizning ko'p asrlik, tarixan shakllangan, qadimiy an'analari negizida yuzaga kelgan boy musiqiy merosi xalq orasida keng yoyila boshladи. Xususan, aholini musiqiy havaskorlikka jalb etish va ular negizida to'garaklarni tashkil qilish ishlari, aynan, shu davrdan rivojlana boshlagan.

Musiqa folklori⁹ va og'zaki an'anaviy professional musiqa deb yuritilgan xalq qo'shiqlari va cholg'u kuylari, mumtoz kuy va ashulalarini targ'ib etishda professional hamda havaskorlik jamoalari shakllana boshlandi. Qolaversa, bir va ko'p ovozli uslubiy yo'nalishda o'zbek estrada san'ati ham vujudga kela boshladi. Turli xil milliy vokal-cholg'u ansamblar, "jaz"¹⁰ va "simfo-jaz"¹¹ orkestrlari shakllanib, ijro etuvchi havaskor, professional sozanda hamda xonandalarning ilk, ya'ni birinchi avlodlari yetishib chiqdi.

"Estrada san'ati" shakllanishidagi ilk jarayon, bu san'at yo'nalishini ifoda etuvchi va amaliyotda keng qo'llanila boshlangan atamalar bilan bog'liqligini etirof etish lozimdir. Jumladan:

"Estrada" (lotincha, stratum) atamasi, aslida, taxtadan pol qurish yoki sahna qurish ma'nosini anglatadi. Estrada fransuzcha yoki lotincha bo'libgina qolmay, deyarli barcha tillarga kirib borgan. Masalan: ingliz tilida – estrada, rus tilida – эстрада, yunon tilida estrad, shved tilida – **estradu, ispan tilida – estrados, polyak tilida – estradowa** va hokazo.

Estrada musiqaning muhim tarmog'i bo'lib, u ham o'z navbatida turli qismlardan iborat:

1. **"Estrada konserti"** – bir yoki turli xil san'at namunalari jamlanmasidan tashkil qilingan konsert tomoshasi, dasturi hisoblanadi.
2. **"Estrada san'ati"** – musiqaning bir turi bo'lib, ko'p qamrovli, ko'pincha, yengil cholg'u va vokal musiqa asarlar yig'indisi.
3. **"Estrada musiqasi"**- turli xil mavzu va bir-biriga bog'liq hamda o'xshash bo'limgan mazmunda bastalangan yengil, rang-barang, xilma-xil qo'shiq, cholg'u musiqasi va, shu bilan birgalikda, musiqa san'atining bir turi hamdir.
4. **"Estrada bastakori" (kompozitor)** - estrada musiqasini va insonlarning qalbiga xush yoquvchi kuylarini bastalovchi ijodkorning nisbiy nomi.
5. **"Estrada xonandasi yoki sozandasi"** - ijrochi san'atkor, kasbiy mutaxasisning nisbiy nomi.
6. **"Estrada musiqa jamoalarining nomlari"**- "Esrtada orkestri", "Estrada-simfonik orkestri", "Jaz orkestri", "Simfo-jaz orkestri", "Big-bend", "Estrada vokal-cholg'u ansambl" va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Hozirgi kunda zamonaviy estrada san'ati G'arb uslubi va mintaqaviy xususiyatlar asosida shakllangan. Biroq, uning mamlakatimizga ilk kirib kelgan yillaridagi ko'rinishi sokin, og'ir-vazmin va kuylari sekinroq ijro etilgan. Botir Zokirovning ajabtovur ijrosi, "Yalla"

⁹ Folklor – inglizcha so'zdan olingan bo'lib, "xalq donoligi", "xalq donishmandligi" degan ma'noni anglatib, xalq ijodini ifodalaydi. Ushbu atama 1846-yilda Vilyam Toms tomonidan kiritilgan [3].

¹⁰ Jaz (inglizcha: jazz) — professional musiqa turi; zamonaviy, ommabop, xususan, estrada musiqasining asosiy uslubiy manbalaridan biri. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Afrika va Yevropa musiqa madaniyatining elementlari bir-biriga qo'shilishi natijasida AQShdagi Luiziana shtatidagi Yangi Orlean afroamerikaliklari ijodida yuzaga kelgan [4]. Afrika xalklari folklorining belgilari — bir yo'la turli usullarning yangrashi, deyarli har gal o'zgarib turuvchi asosiy kuyning ko'p takrorlanishi, o'ziga xos nolalarga boyligi, hayajonli kuylash uslubi, muayyan yo'nalishdagi ijroviy badihago'ylik — jazning tub xususiyatlariga aylangan.

¹¹ Simfo-jaz, ya'ni jaz orkestri — jaz va estrada musiqasi an'analaridagi orkestr.

guruhi va boshqa retro namunalaridan ko'rishimiz mumkinki, estradaning dastlabki va hozirgi ko'rinishlari kuylarning bastalanishi, ijob talaffuzi va tezligida anchagina farqlarga ega. Shunday bo'lsa-da, makon va zamon bilan hamnafas ravishda ushbu yo'nalishning rivojlanishi kishilarning intellektual yuksalishiga hamohang bo'lib bormoqda.

Xulosa. Maqolaning umumiyligi mazmuni estradaning o'ziga xos xususiyatlari hamda o'zbek estrada san'atining vujudga kelishiga bag'ishlangan bo'lib, undagi mazmunni tahlil qilish mamlakatimiz musiqa olamining nazariy jihatlarini namoyon etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Estrada [online wikipedia]. 09.05.2022. www.wikipedia.com
2. Jabborov A., Begmatov S., Azamova M. O'zbek musiqasi tarixi. – Toshkent, 2018. – 202 b.
3. Sulaymonov M. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Namangan: "Namangan" nashriyoti, 2012. – 108 b.
4. Roth, Russell (1952). "[On the Instrumental Origins of Jazz](#)". American Quarterly (4): 305–16. [doi:10.2307/3031415](https://doi.org/10.2307/3031415). ISSN: 0003-0678.